**RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1 trln. 801,7 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi - **103,0 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **39,0 % ni** tashkil etdi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi - **49,5 % ni** tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1 trln. 801,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 4,1 % ga o'sishi hisoblanadi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (98,2 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (95,8 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (95,6 %) pasaydi.

## *2019-yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi*





## *Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 104,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh qariyb 1,7 martaga, tosh ko'mir 20,3 % ga, tabiiy qumlar 1,1 % ga oshdi. Shu bilan birga xom neft (95,3 %) pasaygan.

## *Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| **2018-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan** | **Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari** | **2019-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan** | **O'sish sur'ati, %** |
|---|---|---|---|
| | **Ko'mir, ming t.** | | |
| 85,7 |  | 103,1 | 120,3 |
| | **Neft, ming t.** | | |
| 42,5 |  | 40,5 | 95,3 |

| 2018-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2019-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Osh tuzi, ming t.** | | |
| 2,8 |  | 5,3 | 1,9m |
| | **Qum, ming t.** | | |
| 18,6 |  | 18,8 | 101,1 |
| | **Chaqiq tosh, ming t.** | | |
| 19,3 |  | 32,5 | 1,7m |

## Neft qazib olish, ming t.



## Ko'mir qazib olish, ming t.




## Chaqiq tosh qazib olish, ming t.




### *Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).*

2019-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 trln. 556,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,4 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,2 % ni (2018-yil yanvar-iyun oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % ni (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 25,3 % ni (22,9 %) va quyi texnologiyali - 60,6 % ni (62,8 %) tashkil etdi.

## *Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 7,0 % (2018-yilning yanvar-iyun oylarida 6,1 %), yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (3,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 29,7 % (30,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (0,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 36,9 % (36,2 %)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 3,8 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,5 martaga, osh tuzi 1,8 martaga, un - 7,1 % ga, suyuq neft - 16,4 % ga, don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo’lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar - 6,1 % ga oshdi.

## *Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| 2018-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Paxta tolasi, ming t.** | | |
| 37,3 |  | 7,1 | 19,0 |
| | **O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.** | | |
| 0,0 |  | 80,9 | - |
| | **Un, ming tn** | | |
| 52,8 |   | 56,6 | 107,1 |
| | **Aroq, ming l.** | | |
| 990,4 |  | 654,6 | 66,1 |
| | **Dizel yoqilg'isi, ming t.** | | |
| 6,3 |  | 5,5 | 87,4 |



## *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash*

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,0 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 2,4 martaga oshgani holda, boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi) hajmi (75,2 %) o'tgan yilga nisbatan pasayganligi kuzatildi.

### *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| 2018-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt/s** | | | |
| 0,0 |  | 1,5 | - |
| **Issiqlik energiyasi, ming Gkal** | | | |
| 47,8 |  | 35,9 | 75,2 |

### *Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi - 33,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 48,9 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 22,3 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 32,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 4,8 % ga oshganligi, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (87,9 %) kamayganligi kuzatildi.

### *Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| 2018-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil *yanvar-iyunida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| **Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna** | | | |
| 8,2 |  | 7,2 | 87,9 ↓ |
| **Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm** | | | |
| 1,9 |  | 2,0 | 104,8 ↑ |

### *Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 702,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 7,0 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 39,9 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati**




2018-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 50,4 % dan 2019-yilning yanvar-iyun oylarida 51,2 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 49,6 % dan 48,8 % ga pasayganligi kuzatildi.

### *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 378,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.

## *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %*




## *Hudulların sanoat ishlab chiqarishi.*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko’p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,3 %), Jarqo’rg’on (22,4 %), Denov (12,5 %) tumanlari hissasiga to’g’ri kelmoqda.

## *2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo’yicha sanoat ishlab chiqarishning o’sishi 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan %*



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste’mol tovarlari hajmida 22,4 %), Sho’rchi (13,3 %) tumanlari va Termiz shahri (14,9 %) da ishlab chiqarildi.

### *2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo’yicha istemol mollarining o’sishi 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan %*




### *Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 891,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 49,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uzun (97,7 %) va Termiz (87,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Sherobod (30,2 %), Jarqo'rg'on (34,5 %), Sho'rchi (38,5 %) tumanlari va Termiz shahrida (38,1 %) kuzatildi.

### *2019-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %*




### *Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari*

Bugungi kunda viloyatda 2481 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 540 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,8 %) Termiz shahriga, 271 tasi (10,9 %) Denov tumaniga to'gri kelmoqda.

***Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik***
*(2019-yil 1 iyul holatiga)*




2019-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 669 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ularning 19,6 foizi Termiz shahri, 13,3 foizi Denov tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**
Aloqa telefoni: *(76) 223-07-24*